

Toshkent shahar statistika boshqarmasi



2018 yilning yanvar-aprel oyida QURILISH ISHLARI

RAQAMLAR:

Qurilish-montaj ishlari hajmi – **2216,1 mlrd. soʻmni** yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan **109,6 %ni** tashkil etdi;

Yirik qurilish-pudrat tashkilotlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi – **31,5 %**


Kichik korxona va mikrofirmalar ulushi – **45,5 %**

Qurilishda norasmiy sektoring ulushi – **23,0 %**

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida shaharda 2216,1 mlrd.soʼmlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, oʼsish surʼati oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 109,6 %ni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik tashkilotlar tomonidan qurilish ishlari hajmi 699,3 mlrd.soʼmni yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 131,9 %ni tashkil qilib, oʼtgan oydagisi oʼsish suratiga nisbatan 8,4 % punktga kamaydi.

Mos ravishda, kichik korxona va mikrofirmalar 1007,9 mlrd. soʼm yoki 104,7 %ni hamda norasmiy sektor 508,9 mlrd.soʼm yoki 97,9 %ni tashkil etdi.





Tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi

**2018 yilning yanvar-aprel oylarida qurilish ishlari umumiy
hajmida tumanlarning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)**

Tumanlar	Jami	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %da
Toshkent shahar	2216,1	109,6
tumanlar:		
Bektemir	60,0	117,2
Mirzo Ulug'bek	309,3	108,5
Mirobod	398,0	112,5
Olmazor	153,5	113,2
Sergeli	143,4	112,3
Uchtepa	79,0	88,0
Chilonzor	304,1	113,8
Shayxontoxur	184,6	111,6
Yunusobod	214,0	112,1
Yakkasaroy	193,4	110,2
Yashnobod	176,9	109,0

Tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Mirobod tumanida bajarilgan bo'lib, shaharda bajarilgan jami qurilish ishlarining 18,0%ini tashkil etdi, Mirzo Ulug'bek tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 14,0%ni, Chilonzor tumanida 13,7%, Yunusobod tumanida 9,7% va Yakkasaroy tumanida 8,7 %ni tashkil etdi.



Tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi (davomi)



Shaharda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Bektemir tumanida bu ko'rsatkich eng past 2,7%ni tashkil etdi. Shuningdek, Uchtepa va Sergeli tumanlarida ushbu ko'rsatkich mos ravishda 3,6 % va 6,5 % ni tashkil

etgan bo'lsa, Olmazor tumanida 6,9 %ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.


Katta hajmda amalga oshirilayotga qurilish ishlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- Chilonzor tumanida Iqtisodiyot Vazirligining rekonstruksiya qilinishi;
- Shaharda ko'priklar va temir yo'l halqasining qurilishi,
- Sergeli tumanida – turar joylar va 2-aeroportni rekonstruksiya qilish;
- Yakkasaroy tumanida - Toshkent pedagogika institutini rekonstruksiya qilish;
- Chilonzor tumanida - milliy bog'ni rekonstruksiya qilish;
- Sergeli tumani ko'p qavatli arzonlashtirilgan uy-joylarni qurilishi;
- Chilonzor tumanida "Humo" sport saroyining qurilishi.






Tumanlar bo'yicha jami qurilish ishlari hajmi, %da (davomi)



Qurilish ishlari hajmi tarkibi






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi, ya'ni 65,0%i qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Fuqarolik obyektlari qurilishi va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi ham o'tgan yilga nisbatan ko'paygan holda jamiga nisbatan 17,9%ni tashkil qildi.

2017-2018 yillarda Toshkent shahri bo'yicha qurilish ishlari hajmining sektorlari bo'yicha ulushlarining o'zgarish dinamikasi, %da





**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

**Sh.Yarashov
(0371) 230-88-18**